

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Burxonova Yulduzxon Botirali qizi

Fa’rg’ona davlat universiteti magistr talabasi

yulduzxonburxonova220501@gmail.com

Jurayev Islom Mamasodikovich

Farg’ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti Ingliz filologiyasi kafedrasida katta

o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Xususan, milliy-madaniy xususiyatlar, ko‘chma ma’no, muqobil variant topish, obrazlilik va uslubiy bo‘yoqdorlikni saqlash hamda kontekstga moslashtirish masalalari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Frazeologizmlarni tarjima qilishda ekvivalentlik, frazeologik analog, tavsifiy tarjima va kontekstual almashtirish usullarining ahamiyati misollar orqali ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida frazeologik birliklarni muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun lingvistik bilim bilan bir qatorda lingvomadaniy va ekstralingvistik omillarni ham hisobga olish zarurligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, frazeologizm, tarjima, tarjimashunoslik, ekvivalentlik, frazeologik analog, tavsifiy tarjima, lingvomadaniyat, milliy kolorit, kontekst, obrazlilik, uslubiy bo‘yoqdorlik.*

Frazeologik birliklarni bir tildan ikkinchi bir tilga o‘girish tarjimashunoslikning eng murakkab va bahsli muammolaridan biri bo‘lib sanaladi. Zero, frazeologizmlar xalqning milliy-madaniy merosi, tarixi va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan til birliklaridir. Ingliz va o‘zbek madaniyatlari bir-biridan tarixiy, ijtimoiy va madaniy tomondan sezilarli darajada farq qiladi. Aynan shu farqlar ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarni tarjima qilishda semantik-stilistik, lingvo-madaniy va boshqa shu kabi nomutanosibliklarga sabab bo‘ladi. Sababi shuki, ingliz tilidagi bir frazeologik birlikni o‘zbek tiliga yoki o‘zbek tilidagi bir frazeologizmni ingliz tiliga tarjima qilish - bu oddiy bir tarjima jarayoni bo‘lib hisoblanmaydi. Frazeologik birliklarni tarjima qilish degani, frazeologik birlik bilan birgalikda undagi milliy-madaniy, tarixiy, ijtimoiy yoki diniy qarashlarni yoki ma’nolarni ham tarjima qilish deganidir. Shu sababli frazeologizmlarni tarjima qilish jarayonida turli xil to‘siq va muammolarga duch kelinadi va bu muammolarni bartaraf etish va frazeologizmlarni muqobil ravishda tarjima qilish frazeologiya sohasining ham asosiy masalasi hisoblanadi.

Eng birinchi navbatda, frazeologizmlarda milliy-madaniy xususiyatlar muammosi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Chunki frazeologizmlar har bir millat yoki xalqning o‘z millati va madaniy hayotidan kelib chiqqan holda shakllanib yuzaga kelgan. Bu haqida G‘.Salomov o‘zining “Tarjima nazariyasi asoslari” nomli asarida shunday deydi: “Dunyodagi juda ko‘p xalqlarda yaxshilik, yuvoshlik, saxiylik, yomonlik, ayyorlik, vahshiylik, qo‘pollik timsoli

sifatida ma’lum hayvon yoki parrandalarning nomlari qabul qilingan”⁸. Xususan, G‘.Salomov o‘z asarida yomonlik va zararkunandalik timsoli sifatida - ilon yoki chayon, mehnatsevarlik timsoli sifatida - chumoli yoki asalari, kattalik timsolida - fil yoki tuya, ayyorlik timsolida - tulki, qo‘pollik timsolida - ayiq va shu kabi misollarni keltirib o‘tgan. Shuningdek, u turli xalqlarda shu kabi o‘xshatish va sifatlash turlicha bo‘lishini ham aytib o‘tgan. Ya’ni turli xalqlar frazeologizmlarga o‘zining madaniyatidan kelib chiqqan holda turlicha yondashishadi va natijada tarjima jarayonida milliy-madaniy farqlar kuzatiladi va bu farqlar tarjima qilish jarayonini murakkablashtiradi. Misol uchun, ingliz tilida dengizchilik, o‘rmon, ob-havo, choy va ovqatlanish madaniyati, xalqona va obrazli hayvonlar bilan bog‘liq iboralar, shaxsiy hayot, mustaqillik va individuallikka bog‘liq iboralar yetakchilik qilsa, o‘zbek tilida esa chorvachilik, dehqonchilik, tog‘, cho‘l, hayotiy tajriba, mehmondo‘stlik, o‘dob-axloq va umumiylikka oid iboralar ko‘p uchraydi. Bu frazeologizmlarda milliy kolorit yaqqol ko‘zga tashlanadi va madaniy farqlarni yuzaga chiqaradi. Ya’ni tarjimon ingliz tilidagi bir iboraning obrazini o‘zbek tiliga yoki o‘zbek tilidagi bir frazeologizmning obrazini ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirmoqchi bo‘lsa tushunmovchiliklar yoki ma’noviy bo‘shliqlar yuzaga keladi.

Rus tilshunos olimi V.N.Komissarov ham frazeologizmlarning tarjimasi va tarjima muammolari haqidagi o‘zining “Tarjima nazariyasi” nomli kitobida shunday ta’kidlagan: “Bunday birliklarning semantikasi murakkab informatsion kompleksni tashkil etadi. Frazeologizmning ma’nosi uni tashkil etuvchi qismlar (komponentlar) ma’nosining yig‘indisiga teng emas. Obrazli frazeologik birliklarning o‘ziga xosligi shundaki, ularda ma’noning ko‘chma komponenti go‘yoki to‘g‘ri (birlamchi) ma’no ustiga qatlamlanadi (ustma-ust tushadi). Tarjima uchun nafaqat nima uzatilayotgani (haqidagi axborot), balki uning qanday usulda amalga oshirilayotgani ham muhim ahamiyat kasb etadi⁹.” Ya’ni olimning fikricha frazeologizmlardagi ko‘chma ma’no komponenti to‘g‘ri ma’no ustiga qatlamlanadi va aynan shu xususiyati tufayli tarjima jarayonida nafaqat matndagi axborot mazmuni, balki shu axborotning qanday lisoniy shaklda berilayotganligini (obrazlilikini) ham tarjima qilish lozim bo‘ladi va bu tarjimon oldiga jiddiy muammolarni qo‘yadi. Bunga misol qilib ingliz tilidagi “to be under the weather” iborasini olsak. Ushbu iboraning so‘zma-so‘z ma’nosi “ob-havo ostida bo‘lmoq” deganidir va bu yerda mantiqsiz birikma yuzaga keladi. Lekin ingliz xalqining tabiat hodisalariga bo‘lgan munosabati natijasida ushbu birlik tarkibidagi so‘zlar o‘z leksik ma’nosini butunlay o‘zgartirib, “o‘zini yomon his qilmoq”, “o‘zini yaxshi qis qilmaslik”, “tobining qochishi”, “biroz kasal bo‘lmoq” degan ko‘chma semantik ma’no qatlamini hosil qilgan. Agar tarjima jarayonida V.N.Komissarov ko‘rsatib o‘tgan ushbu ko‘chma obraz qatlami inobatga olinmasdan, kalka(so‘zma-so‘z) usuli qo‘llansa, va o‘zbek tiliga “ob-havoning ostida bo‘lmoq” deb tarjima qilinsa, nafaqat bu frazeologizmning ma’nosi noto‘g‘ri tarjima qilingan hisoblanadi, qolaversa tushunmovchiliklar va noto‘g‘ri talqin qilinish muammolariga olib kelinadi. Shu kabi muammolarni bartaraf etish uchun tarjimada frazeologik analog(qisman muqobilik) usulidan foydalanilgan holda, iborani o‘zbek tilidagi “tobi qochmoq” birligi bilan qayta yaratish eng maqbul yechim hisoblanadi. Bu usul yordamida inglizcha iboradagi ob-havo obrazi o‘zbek milliy tafakkuriga xos bo‘lgan jismoniy holat obrazi bilan almashtiriladi.

⁸ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – В. 136.

⁹ Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – С. 182.

Natijada, asl nusxaning konnotativ(hissiy-ekspressiv) va uslubiy bo‘yog‘i o‘zbek tilida to‘liq va tabiiy ravishda saqlab qolinadi. O‘zbek tilidagi “Osh bo‘lsin” iborasi esa o‘zbek milliy-madaniy xususiyatini ifodalaydi va bu iboraning tubida “Yegan taomingiz tanangizga va joningizga salomatlik va quvvat bo‘lsin” degan ma’no yotadi. Ingliz tilida shunga o‘xshash iboralar uchraydi, masalan “Enjoy” yoki “Enjoy your meal” iboralari, lekin ingliz tili va ingliz xalqi kognitiv tushunchasida xuddi shu mazmundagi ibora mavjud bo‘lmaganligi sababli, ushbu ibora ingliz tiliga tavsifiy(izohli) usul bilan tarjima qilinadi va “May it do you good” yoki “May it bring you health” kabi bo‘ladi¹⁰.

Frazeologik birliklarning tarjima qilish muammolaridan yana biri – bu frazeologizmlarning ko‘chma manoga ega bo‘lishidir. Ingliz tilidagi aksariyat iboralar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda o‘zining haqiqiy mazmunini yo‘qotadi. Masalan, “break a leg” iborasi va uning so‘zma-so‘z tarjimasi “oyoqni sindir” kabi ma’nosiz va tushunarsiz tarjimini beradi. Lekin ingliz tilida bu ibora ko‘chma ma’no ifodalaganligi va biron bir insonga omad tilashda ishlatilinishi sababli o‘zbek tiliga uning aynan ko‘chma ma’nosi tarjima qilinadi, yoki o‘zbek tilida uning ko‘chma ma’nosiga mos tushadigan ibora qo‘llaniladi. Ya’ni bu iboraning o‘zbek tilidagi muqobil variantlari sifatida “Omad!”, “Omadingni bersin!” yoki “Ishing yurishsin!” kabi to‘g‘ridan to‘g‘ri omad tilashda ishlatiladigan iboralar qo‘llaniladi. Demak, ingliz tilida kimgadir omad tilash “break a leg” kabi ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora bilan ifodalansa, o‘zbek tilida esa bu ma’no bevosita omad tilash ma’nosini beruvchi iboralar bilan ifodalanadi.

O‘zbek tilidagi “Qo‘li kalta”¹¹ iborasi ko‘chma ma’noda moddiy imkoniyati cheklanganlikni, kambag‘al yoki chorasizlikni ifodalaydi va bu iborani ingliz tiliga so‘zma-so‘z, “to have short arms” kabi tarjima qilinganida bu tarjimaning ma’nosi ko‘chma ma’noni emas, aksincha haqiqatdan ham jismoniy holatni ifodalashi tushunilishi mumkin. Bu kabi muammoni hal qilish uchun esa ingliz tilida ushbu iboraga yaqin ma’noni beruvchi frazeologizmlardan foydalanish yoki bu iborani tavsifiy yo‘l bilan tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ingliz tilidagi “One’s hands are tied” iborasi tashqi ko‘rinishi jihatidan yuqoridagi iboraga mos kelishi mumkin, lekin bu iboraning asl ma’nosi bilan o‘zbek tilidagi iboraning ma’nolari taqqoslanganda, ular mazmunan farq qiladi. Chunki ingliz tilidagi frazeologizmining ma’nosi moddiy imkoniyatning yetishmasligini emas, chorasiz, qo‘ldan hech narsa kelmaydigan vaziyatga tushib qolishni ifodalaydi. Ingliz tilida moddiy imkoniyatning yetishmasligi “short of cash”, “short of money”¹² yoki “cannot afford” kabi bevosita iboralar bilan ifodalanadi. Shuni aytish mumkinki, tarjimada iboraning tashqi shaklidan ko‘ra uning ichki semantik mazmunini saqlab qolish muhim va G‘.Salomov ta’kidlaganidek, quruq lug‘aviy ekvivalentlik emas, balki ma’noviylik va mazmunni ochib bera olish birinchi o‘ringa chiqishi shart¹³.

Ingliz va o‘zbek tilaridagi frazeologik birliklarning asosiy tarjima muammolaridan yana biri - bu muqobil variant topishdir. Sababi shundaki, frazeologik birliklar semantik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo‘lganligi, ulardagi milliy kolorit borligi va ularni saqlagan holda

¹⁰ Gutt E.A. Translation and Relevance: Cognition and Context. – 2nd edition. – London and New York: Routledge, 2010. – p. 24-27.

¹¹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

¹² Oxford Advanced Learner’s Dictionary. – Oxford: Oxford University Press, 2014.

¹³ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – б. 116-117.

ikkinchi tilda ifodalash juda murakkabdir va tarjimondan juda kuchli mahoratni talab qiladi. Ingliz tilidagi barcha frazeologizmlarning ham o‘zbek tilida yoki aksincha o‘zbek tilidagi barcha frazeologizmlarning ham ingliz tilidagi muqobillari mavjud emasdir. Chunki ularning tarkibidagi obrazlar, asoslangan tushunchalar yoki kelib chiqish tarixi bir-biridan tubdan farq qiladi. Bunday birliklar esa tarjimashunoslikda “absolyut bo‘shliqlar” ya’ni madaniy bo‘shliqlar deb ataladi. Bunday hollarda tarjimon G‘.Salomov o‘z asarida ta’kidlaganidek, tavsifiy tarjima usulidan foydalanishga majbur bo‘ladi¹⁴. Shuningdek, tarjimon frazeologik analog yoki kontekstual almashtirishdan foydalanishga ham majbur bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi “To bite the bullet”(O‘qni tishlamoq) iborasi, tarixiy asosiga ko‘ra tibbiyot rivojlanmagan urush yillarida og‘ir yaralangan askarlarni anesteziyasiz (og‘riqsizlantirmasiz) operatsiya qilishgan. Askar og‘riqdan baqirib yubormasligi va tilini tishlab olmasligi uchun uning og‘ziga qo‘rg‘oshin o‘q (bullet) solib, “tishlab turishni” buyurishgan. Bu iboraning tavsifiy tarjimasida esa “Noilojlikdan eng og‘ir, yoqimsiz, ammo qochib qutulib bo‘lmaydigan vaziyatga chidash, og‘riq va qiyinchilikka qaramay ishni oxiriga yetkazish” deganidir. Xuddi shunday o‘zbek tilidagi o‘zbek lingvomadaniyatida faol qo‘llaniladigan “Qo‘lini duoga ochmoq” somatik-ritual frazeologizmi ham ingliz tiliga nisbatan absolyut lingvomadaniy lakuna hisoblanadi. Mazkur birlik o‘zbek xalqining islomiy-etnik qadriyatlari hamda muloqot o‘dobi o‘zida mujassam etgan va uning asosi bo‘lgan jismoniy-diniy ritual (kaftlarni ochish va fotiha tortish) ingliz xalqi turmush tarzi va kognitiv muhitida mutlaqo mavjud emas.

Tarjimashunos olim G‘.Salomov qayd etganidek, muqobili bo‘lmagan bunday absolyut lakunalarni o‘g‘irishda quruq lug‘aviy kalkalash uslubi matnning g‘alizlashuviga olib keladi¹⁵. E.Guttning dolzarflik nazariyasi (Relevance Theory) tamoyillariga muvofiq, bunday kognitiv tafovutlarni bartaraf etish hamda maqsadli til kitobxonida interpretiv o‘xshashlikni (interpretive resemblance) ta’minlash uchun ushbu ibora ingliz tiliga faqatgina “To raise one’s hands in supplication” kabi tavsifiy (descriptive) yoki kontekstual talabga ko‘ra “To offer a blessing” singari funksional transformatsiyalar yordamida o‘g‘irishi shart¹⁶.

Obrazlilikni saqlash va uslubiy bo‘yoqdorlik muammolari tarjima jarayonlarida yuzaga keladigan eng murakkab lingvistik jarayonlardan hamda muammolardan biridir. Frazeologizmlar tilning tayyor obrazli ifoda vositasi bo‘lib, tarjimada ushbu obraz yo‘qolib qolsa, matnning emotsional-ta’sirchanligi keskin pasayadi.

Taniqli g‘arb tarjimashunos olimi Susan Bassnett o‘zining “Translation Studies” asarida ta’kidlaganidek, idiomatik birliklar matnga shunchaki axborot emas, balki o‘ziga xos ekspressiv-uslubiy yuk (expressive identity) olib kiradi. Olimning fikricha, tarjima jarayonida invariant sifatida iboraning quruq semantikasi emas, balki uning kitobxonga ko‘rsatadigan emotsional-ekspressiv ta’sir kuchi saqlanishi shart. Aks holda, maqsadli matnda jiddiy uslubiy va funksional yo‘qotishlar (loss) yuzaga keladi¹⁷. Masalan, Susan Bassnett o‘zining kitobida “The spitting image” iborasini misol tariqasida olgan va uni tahlil qilgan¹⁸. Bassnett “He is the

¹⁴ Саломов Г. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – б. 117-119.

¹⁵ Саломов Г. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 117-118.

¹⁶ Gutt E.A. Translation and Relevance: Cognition and Context. – 2nd edition. – London and New York: Routledge, 2010. – p. 105-135.

¹⁷ Bassnett S. Translation Studies. – 3rd edition. – London and New York: Routledge, 2002. – p. 32-33; 36.

¹⁸ Bassnett S. Translation Studies. – 3rd edition. – London and New York: Routledge, 2002. – P. 32.

spitting image of his father”(Otasining og‘zidan tushkandek(tushgan behidek)) iborasi bilan “He looks like his father”(U otasiga o‘xshaydi) iborasi o‘rtasidagi farlarni ko‘rsatadi. Unga ko‘ra birinchi iboradagi obrazlilik matnga qo‘shimcha emotsional-ekspressiv bo‘yoq va yuk beradi. Agarda ushbu birinchi iborali gap o‘zbek tiliga xuddi ikkinchi gap mazmunida tarjima qilinsa, bu iboradagi yorqin emotsional va ekspressiv bo‘yoq tasviri yo‘qoladi. Shuningdek, bu iborani o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinsa ham mantiqsiz gap hosil bo‘ladi. Shuning uchun, tarjimon aynan shu kabi frazeologik birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida, o‘zbek tilidagi ayni shunday kuchli obrazlilik va xalqona uslubiy bo‘yoqdorlikni saqlab qolishi uchun muqobil variantlar(“Otasining og‘zidan tushgan behidek" yoki “Sandiqdan chiqqandek otasining o‘zi”)yordamida tarjima qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zbek tilidagi “Tuyaning dumi yerga tekkanda” iborasini ham ingliz tiliga tarjima qilishda undagi obrazlilik va emotsional-ekspressiv bo‘yoqni salab qolish maqsadida, ingliz tilida xuddi shu mazmuni ifodalovchi hamda obrazlilik, emotsional va ekspressiv tasvir bo‘yog‘iga ega muqobil varianti “When pigs fly” deya tarjima qilish ham maqsadga muvofiqdir. Bu yerda obrazlilik, emotsional va ekspressiv tasvir bo‘yoq saqlanib qolingan, faqatgina undagi obraz va tasvir ikki xalqning tili va madaniyatidan kelib chiqqan holda turlicha shakllangan.

Tarjima jarayonlarida yuzaga keluvchi yana bir muammolardan biri - bu kontekstga moslashtirish muammosidir. Chunki bir frazeologizm turli vaziyatlarda turlicha ma’noda qo‘llanishi mumkin va uning aynan qaysi ma’noda kelayotganini kontekstga qarab bilib olish mumkin. Shu sababli tarjimon kontekstni to‘g‘ri tahlil qilishi zarur hisoblanadi. Gutt an’anaviy tilshunoslikdagi “kontekst faqat matn atrofidagi so‘zlardir” degan qarashni butunlay rad etadi. Uning fikriga ko‘ra, kontekst - bu kitobxonning ongidagi psixologik taxminlar va madaniy bilimlar majmuasidir (cognitive environment)¹⁹. Ya’ni Gutt tarjimon asl matndagi kontekst bilan maqsadli til kitobxonining ongida mavjud bo‘lgan kontekst (bilimlar) bir xil emasligini bilishi lozim. Tarjima muvaffaqiyatli chiqishi uchun o‘quvchi matnni o‘qiganda ortiqcha intellektual zo‘riqish (processing effort) sarflamasligi, ya’ni ibora uning kognitiv kontekstga moslashtirilishi kerakligini ta’kidlaydi. Masalan o‘zbek tilidagi “Eshak ham loyga botsa, egasini chaqiradi” iborasini ingliz tiliga so‘zma-so‘z “Even a donkey calls its owner when stuck in the mud” deya o‘girilsa, ingliz o‘quvchisining kognitiv muhitida(context) bu frazeologizm mantiqsiz tuyuladi va yuqori “processing effort”(ongni zo‘riqtirish) talab qiladi. Shuning uchun ham bu iborani inglizcha kontekstga moslab, ularning dunyoqarashidagi yoki vaziyatiga qarab “Even the strongest need help sometimes” kabi funksional-kontekstual muqobili tanlanadi. Lekin Bassnett kontekst muammosiga lingvomadaniy va semiotik tizim sifatida qaraydi. Bassnett asar matnini o‘sha tildagi ulkan madaniy kontekstning bir qismi (fragmenti) deb hisoblaydi. Uning “Translation Studies” kitobining birinchi bobidagi “Decoding and Recoding” qismida yozilishicha, tarjimon matnni shunchaki tarjima qilmaydi, balki avval uni asl madaniyat kontekstida “koddan chiqaradi” (decoding), so‘ngra maqsadli til madaniy kontekstiga moslab “qayta kodlaydi” (recoding). Kontekst almashganda so‘zlar o‘z shaklini yo‘qotishi muqarrar, asosiysi vazifa (vazifadoshlik) saqlanishi kerak²⁰. Misol uchun

¹⁹ Gutt E.A. Translation and Relevance: Cognition and Context. – 2nd edition. – London and New York: Routledge, 2010. – p. 24-27.

²⁰ Bassnett S. Translation Studies. – 3rd edition. – London and New York: Routledge, 2002. – p. 30-33.

ingliz tilidagi “To carry coals to Newcastle” iborasini o‘zbek tiliga “Nyukaslga ko‘mir olib kelish” deya tarjima qilinsa, bu tarjima o‘zbek tilidagi o‘quvchida hech qanday ma’no anglatmaydi va bu ibora oddiy va to‘g‘ri ma’noda tushunilishi mumkin. Lekin bu iborani o‘zbek tiliga “Xirmonga yantoq tashimoq” yoki “Makkaga gilam sotmoq” iboralari orqali tarjima qilib berish matnni ingliz tilining lingvomadaniy kontekstiga to‘liq moslashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayoni bu juda murakkab bir jarayon bo‘lib, tarjimondan juda kuchli mahorat, nafaqat lingvistik ma’lumot, qolaversa ekstralingvistik xabardorlikni ham talab qiladi. Chunki tarjima bu faqatgina so‘zlarni, iboralarni va gaplarni tarjima qilish emas, balki til bilan birgalikda undagi madaniyat va boshqa xususiyat larni ham tarjima qilish deganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bassnett S. Translation Studies. – 3rd edition. – London and New York: Routledge, 2002.
2. Gutt E.A. Translation and Relevance: Cognition and Context. – 2nd edition. – London and New York: Routledge, 2010.
3. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. – Oxford: Oxford University Press, 2014.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
5. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990.
6. Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.